O`ZBEKISTONDA ELEKTR TA`MINOT TIZIMI

Djumaniyazov Murodboy Allayarovich
Qaraqalpaqiston Respublikasi Ellikqal'a tuman kasb-hunar maktabi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimiz elektr energiya ta`minoti tizimi, amalga oshirilayotgan islohotlar, soha bo`yicha hukumat qarorlari va istiqbolli rejalar muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: energetika, elektr toki, qonun, ta`minot, metod.

KIRISH

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, O‘zbekistonning energetika siyosati mamlakatning energetik xavfsizligini ta’minlashga va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun milliy energetika tarmog‘ining imkoniyatlaridan foydalanishga yo‘naltirildi. Yangi iqtisodiy aloqalarni shakllantirish uchun davlat asosiy tarmoqlarni, jumladan, yoqilg‘i-energetika kompleksi korxonalarini qo‘llab-quvvatlay boshladi, xususan, bu borada quyidagilar belgilab olindi:

- neft va gaz kondensati ishlab chiqarishni ko‘paytirish orqali yoqilg‘i mustaqilligini ta’minlash;
- energetika sanoati uchun ishonchli resurs bazasini yaratish;
- aholining tabiiy va suyultirilgan gaz, elektr energiyasi va zamonaviy yoqilg‘idan foydalanish imkoniyatlarini maksimal darajada kengaytirish;
- energetika sohasining moliyaviy barqarorligini saqlash va sohaga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish;
- to‘laqonli bozor subyektlari va bozor infratuzilmasini yaratish orqali energetika sohasida raqobat muhitini shakllantirish.

Amalga oshirilgan kuzatuvlarga ko‘ra, O‘zbekiston MDH davlatlari orasida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha Rossiya, Ukraina va Qozog‘istondan keyin 4-o‘rinni egallaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O‘zbekiston o‘z energiya resurslari hisobiga ichki ehtiyojlarini to‘la qondiradigan mamlakatlardan biridir. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda o‘zaro bog‘liq energiya tizimining o‘rnatilgan quvvatining taxminan 50% iga egalik qiladi.

So‘nggi yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish xajmi tobora oshib bormoqda. Jumladan, 2021 yilda “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ tomonidan 54,42 mlrd kVt/s elektr energiyasi ishlab chiqarildi va 6,2 mln Gkal issiqlik energiyasi yetkazib berildi. 2022 yilda esa 56,7 mlrd kVt/s elektr energiyasi ishlab chiqarildi hamda 5,2 mln Gkal issiqlik energiyasi yetkazib berildi.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida elektr energetikasining asosiy maqsadi iste’molchilarning tobora o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qanoatlantirish, mavjud elektr stansiyalari va tarmoqlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, yuqori samarali energiya ishlab chiqarish texnologiyalari asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini qurish, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish orqali elektr energiyasini hisobga olish tizimini takomillashtirish, yoqilg‘i-energetika resurslarini diversifikatsiya qilishdan iborat.

2022 yilda 52 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali quyidagilarga erishish amalga oshirildi:

- energiya ishlab chiqarish texnologiyalarini yanada modernizatsiya qilish, tabiiy gazdan foydalanish samaradorligini oshirish va tarmoq mahsulotlarining energiya sarfini kamaytirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;
- Respublikada gidroenergetika resurslarining muhim salohiyatini jadal rivojlantirish tendensiyasini saqlab qolish;
- noan’anaviy qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda yoqilg‘i-energetika balansini yanada diversifikatsiya qilish (shamol va quyosh elektr stansiyalarini yaratish).

Energetika sohasini rivojlantirish har doim davlat nazorati ostida hisoblanadi. Bunga O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan sohaga oid qonunchilik hujjatlari misol bo‘la oladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022– 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirib, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste’mol normalarini kiritish alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Harakatlar strategiyada belgilagan vazifalar bajarilishining maniqiy davomi sifatida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot stratgiyasida xam bir qancha vazifalar belgilangan:

- ✓ Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash hamda «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish;
- ✓ 2026 yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko‘rsatkichini qo‘shimcha 30 milliard kVt.soatga oshirib, jami 100 milliard kVt.soatga yetkazish;
- ✓ O‘zbekiston energetika tizimining qo‘shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta’minlash;
- ✓ Sanoat tarmoqlarida yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish;
- ✓ Elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bo‘yicha choralarni ko‘rish;
- ✓ Iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqaradigan zararli gazlar hajmini bir birlik Yalpi ichki mahsulot hisobida 10 foizga qisqartirish.

2030 yilga kelib respublika iste’moli 120.8 mlrd.kVt.s bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga aholining elektr energiyasiga bo‘lgan talabi – 21,9 mlrd.kVt.s, iqtisodiy sektorning elektr energiyasiga bo‘lgan talabi – 85,0 mlrd.kVt.s bo‘lishi kutilmoqda.

XULOSA VA MUNOZARA

Respublikamizda, xususan, energetika tarmog‘ida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida investorlar, kreditorlar, davlat organlari tomonidan iqtisodiy asoslangan samarali qarorlarning qabul qilinishi xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek, tadqiqot obyekti hisoblangan “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ tomonidan ishonchli buxgalteriya ma’lumotlarining tayyorlanishi va tashqi foydalanuvchilarga o‘z vaqtida yetkazib berilishi bilan bevosita aloqador.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Tursunovich, S. E. Teaching pragmatic competence in EFL context: the case of Uzbek EFL teachers. *ЯЗЫК И КУЛЬТУРА*, 55.
2. Садиков, Э. Т. (2023). ПРАГМАТИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЗНАЧЕНИЯ. *Scientific progress*, *4*(4), 157-160.

3. Tursunovich, S. E. (2021, November). THE ENGLISH LANGUAGE: STANDARD OR NON-STANDARD?. In *Archive of Conferences* (pp. 103-104).
4. Tursunovich, S. E. (2023). INTERACTIONS OF PHILOSOPHY, PRAGMATICS AND PEDAGOGY. *International Journal of Pedagogics*, *3*(04), 62-65.
5. Sadikov, E. (2022). Classification of compliments as speech acts and their basic characteristics in Uzbek and English languages. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, *25*(25).
6. Sadikov, E. T. (2021). TEACHING PRAGMATIC SPEECH ACTS AND COMMUNICATIVE SKILLS IN ACCORDANCE WITH MULTIMEDIA MATERIALS. *Экономика и социум*, (12-1 (91)), 547-549.
7. Sadikov, E. (2023). Actual Issues of Teaching Pragmatic Competences to English Language Learners in Uzbekistan. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, *27*(27).
8. Sadikov, E. (2023). INKORNI IFODALOVCHI NUTQ AKTLARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING AJRALMAS QISMI SIFATIDA O ‘QITISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, *29*(29).
9. Husaynova, M., & Rustamova, D. (2023). ZULFIYA ISROILOVA SHE’RIYATIDA UCHRAYDIGAN LISONIY HODISALAR. *IQRO*, *2*(1), 161-162.
10. Rustamov, I., Xatamova, Z., Xamdamova, O., & Husaynova, T. M. (2023). EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION. *SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS*, *1*(9).
11. O’rinboev, A. (2023). OPTIMIZING PERFORMANCE IN A DENTAL QUEUE WEB APP. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, *2*(9), 5-9.
12. Abdurakhimovich, U. A. (2023). The Vital Role of Web Programming in the Digital Age. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, *1*(6), 42-51.
13. O’rinboev, A. (2023). ANALYZING THE EFFICIENCY AND PERFORMANCE OPTIMIZATION TECHNIQUES OF REACT. JS IN MODERN WEB DEVELOPMENT. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, *2*(24), 54-57.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktabrdagi PF-6096-sonli farmoni.